

# XORAZM VILLOYATI KOMONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARI

*(PhD) Sh.Aqmanova  
UrDU magistranti Sh.Abdullayev*

O‘zbek nomshunosligiga tarixiy, fonetik, leksik (ma’noviy), morfologik, imloviy o‘zgarishlar singari alohida hududdagi shahar, qishloq, mahallalarning nomlariga xos bo‘lgan bir qancha individual o‘zgarishlarni ilmiy asoslarda tahlil etish dolzarb masalalardan biridir. Sababi, “...o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi.”<sup>1</sup>. O‘zlari yashayotgan hududdagi nomlarni bilish ham o‘zlikni anglashga, ajdod-u avlodlarimiz qo‘ygan nomlarni tushunib, anglab, tahlil qilishga turtki beradi. Zero, nom qo‘yish ham o‘z o‘rnida san’at hisoblanadi.

A.V.Superanskaya: “Geografik nomlarni tasnifsiz tahlil qilish va sharhlash qiyin. Toponimist o‘z tadqiqotida ma’lum bir tasnifdan foydalanibgina ilmiy xulosalar chiqarishi mumkin. Tasnif turlicha bo‘lishi tabiiy”, – deb yozgan edi<sup>2</sup>. Demak, til birliklari, tildagi toponimlar, jumladan, komonimlarning lisoniy tasnifi muhim ahamiyatga ega. Tasnif – bilish va o‘rganishning asosi. Til birliklari va hodisalarining leksik-semantik, etimologik, grammatik, uslubiy hamda boshqa lisoniy belgi-xususiyatlariga ko‘ra tur va guruhlarga ajratish lisoniy tasnif hisoblanadi<sup>3</sup>. Komonimlarning mazmun jihatini tadqiq qilish, ularning semantik guruhlarini aniqlash muhim tasniflardan biri hisoblanadi.

“Toponimlar xalq ijodi va ma’naviyatining bir yo ikki so‘zda yozilgan tarixi, eng qisqa tarixiy manbalardir”<sup>4</sup>. Shunday ekan, toponimlarning, xususan, komonimlarning leksik mazmunini o‘rganish, ijtimoiy-ma’naviy jihatdan o‘zgarishlarga uchragan nomlarning semantik guruhlarini aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Komonimlar o‘zbek tilining mustaqil ma’no anglatuvchi onomastik birliklari bo‘lib, Xorazm

<sup>2</sup> Караев С. К. Ойконимия Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. Т., 1998. 50 В.

<sup>2</sup> Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва, 1970. – С. 55.

<sup>3</sup> Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 56.

<sup>4</sup> Nafasof T. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv-izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007. – В.6.

viloyatidagi qishloq nomlarini leksik-semantik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

**Rang-tus belgisini bildiruvchi so‘zlarga asoslangan komonimlar:** Oqyop, Sarimoy, Qizilravot, Oqdarband, Oqqum, Olaja va hokazo. Turkiy-mo‘g‘ul tillarga xos bo‘lgan *qora* leksemasi toponimiyaning deyarli barcha sohalarida faol qo‘llanadi. Vohamizda Qorako‘z, Qoramom, Qoraqosh, Qorayantoq kabi qishloq nomlari mavjud.

**Obyektning joylashish o‘rniga ko‘ra atalgan komonimlar:** Yuqoribog‘, Yuqorido‘rman, Oyoqdo‘rman, Qalandardo‘rman, Ostona, Yuqori Muhamon, Sarapayon, O‘rtayop, Chatko‘pir, Katqal‘a, Gandimiyon (o‘rta qo‘rg‘on) kabi.

**Miqdor tushunchalariga asoslangan komonimlar:** Beshmergan, Qirqyop, Beshta, Beshariq kabi.

**Mavhum tushunchalarga asoslangan komonimlar:** G‘oybu, Yangilik, G‘alaba, Namuna, Ijtimoiyat, Qatag‘on, Do‘stlik kabi.

**Harakat-holat tushunchalariga asoslangan komonimlar:** Olg‘a, Tomodurvadik, Birlashgan kabi.

**Narsa-buyum tushunchasiga asoslangan komonim:** Jirmiz

**Obyektning hajm, xususiyat va belgisi bilan bog‘liq komonimlar:** Bo‘zqal‘a, Shirinvo‘ng‘iroq, Yangibozor, Bo‘ston, Kattabog‘, Cho‘qli, Manaq (kichkina qishloq) kabi.

**Fitonimlarga asoslangan komonimlar:** Guliston, Gulobod, Qorayantoq kabi.

**Gidronimlarga asoslangan komonimlar:** Amudaryo, Qirqyop, Beshariq, Haydaryop, Marbo‘gat, Navxos (yangi kanal) kabi.

**Etnonimlarga asoslangan komonimlar:** Uyg‘ur, Shovotqal‘a, Chig‘atoqal‘a, Qiyot, Qang‘li, Shirinvo‘ng‘iroq, Nayman, Olchin, Bog‘olon, Ovshar kabi.

**Antroponimlarga asoslangan komonimlar:** Navoiy, G‘azovot (G‘ozl ismi kishi bunyod etgan qishloq), Maxtumquli, Komiljon Otaniyazov, Oxunboboyev kabi.

**Aholining kasb-kori, hunariga nisbat berish asosida shakllangan komonimlar:** Sholikor, Chakkasholikor, Paxtakor, Qorovul, Bo‘yrachi, Chiqirchi,

Pichoqchi, Anjirchi, Sovunchi, Dehqon, Cho‘bolonchi, Shoirlar (Yangibozor), Ustalar (Bog‘ot), Ipakchi (Shovot) kabi.

**Aholi yoki alohida shaxsnинг ijtimoiy mavqeyi, nasl nasabiga nisbat berish asosida yuzaga kelgan komonimlar:** Do‘simbiy, Esabiy, Vazir, Bekobod, Boshqirshix, Xo‘jalar, Shixmahshad kabi.

Joy nomlarini hosil qilishda –obod komponenti juda sermabsul hisoblanadi. Keyingi yillarda Respublikamizning barcha hududlarida –obod komponentli joy nomlari shakllandi. Jumladan, Xorazm viloyatida ham obodonlashtirilgan, yangi bunyod qilingan, xalqning kuchi bilan yaratilgan bir qancha qishloq, mahalla, va ovul nomlariga shunday nom berilgan: Xalqobod, Chinobod, Yangiobod, Xonobod va hokazo.

Xorazmda boshqa viloyatlar qishloq va ovul nomlaridan farq qiluvchi sheva elementlari asosida shakllangan nomlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ularning ham semantic mazmunini, atalish motivlarini aniqlashni alohida tadqiqotimizda ko‘rib chiqishni rejalashtirganimiz.

Mamlakatimiz mustaqilikka erishganidan keyin qishloq va mahallalarni insonda estetik zavq uyg‘otadigan, milliy mafkura va qadriyatlarimizga mos keladigan so‘zlar bilan atash keng yo‘lga qo‘yildi. Xonqa tumanida Mustaqillik, Oydin hayot, Porloq, Mangulik, Muqaddas, Mahorat, Ilg‘or; Bog‘ot tumanida Gulshan, Ma’naviyat, Sahovat; Shovot tumanida Zamondosh, Qo‘shko‘pir tumanida Adolat, Iftixor kabi yuksak mazmun anglatuvchi mavhum tushunchalarga asoslangan nomlar ko‘paydi.

Umuman olganda, vohamiz qishloqlari va ularga tegishli barcha ovul hamda mahalla nomlarining qo‘yilish sababi va tarixi bor. Elimizning zabardast ijodkori Omon Matchon so‘zları bilan aytganda “Xorazmning barcha shahar, kent, ovul-qishloqlarining har birining nomi juda qadim-purma’no. Bitta Bog‘oltonni oling, Bo‘zqal’a, Cho‘bolonchi, Do‘simbiy, Miskin bobo...” .

Darhaqiqat, har qanday komonim so‘z sifatida o‘ziga xos ma’no va vazifasiga ega. Ularning har biri yaralgan davri, o‘rni, aholisining tarkibi, geografik shart-sharoiti,

tabiiy muhiti, ishlab chiqarishi, sug‘orish manbalari kabi qator belgilari bilan bir-biridan farqlanadi. Kuzatishlar natijasida Xorazm viloyatida suv inshootlari nomlari, etnik urug`-qabila nomlari va hunarmandchilik nomlari asosida shakllangan komonimlar ko‘pchilikni tashkil qilishi aniqlandi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “...ijtimoiy obektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma’naviy saviyamizni yaqqol ko‘rsatadigan o‘ziga xos mezondir. Buni hech kim hech qachon unutmasligi kerak. Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o‘ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go‘zal urf-odatlarimiz, betakror san’atimiz va adabiyotimizni, ona tilimizni ko‘z qorachig“iday saqlashimiz zarur”<sup>5</sup>.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Караев С. К. Ойконимия Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени доктора географических наук в форме научного доклада. Т., 1998. 50 Б.
2. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва, 1970. – С. 55.
3. Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 56.
4. Nafasof T. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv-izohli lug`ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007. – B.6.
5. Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabr kuni “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinganligining 30 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan anjumanda so`zlagan nutqidan.

<sup>5</sup> Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabr kuni “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinganligining 30 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan anjumanda so`zlagan nutqidan.